

MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA AGRESSIV XULQI NAMOYON BO'LISHINING DIAGNOSTIKASI

Xolliyeva Aziza Tura qizi

TerDPI Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi magistranti

Sattorova Muxlisa Akram qizi

Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqola maktab yoshidagi bolalarda agressivlik muammosi va uning dolzarbligi, uning o'rganilishi va diagnostika qilish, kuzatish orqali korreksiyalash yo'llariga qaratilgan.

Kalit so'zlar: agressiya, negativlik, bola, ota-ona, tadqiqot, psixolog, psixologik muammo, diagnostika, korreksiya.

Hozirgi kunda agressiya muammosiga duch kelgan bolalarni uchratishimiz mumkin va bu juda ham dolzarb masala hisoblanadi. Agressiv xulq atvor sababli bolalar orasida jinoyatchilik ishlari oshgan. Maktab yoshidagi bolalar davrini o'rganuvchi ko'pchilik olimlar agressiya, emotsional qo'zg'alishni, jahl chiqqan holatlarda balog'atga yetmagan bolalarda psixologik muammolar qanday namoyon bo'lishiga ko'proq e'tibor qaratganlar. Chunki, bu yoshda ularda hayot tajribalari yetarli bo'lmaydi, lekin boshqalar tomonidan tan olinishga va mustaqil bo'lishga intiladilar. Ilmiy adabiyotlarda "agressiya"ga (lotin.agressio-hujum) "yo'naltirilgan salbiy xulq- atvor ijtimoiy muhitdagi qoidalar, normal amal qilmaslik, insonlarga ruhiy jismoniy zarar yetkazish" deya ta'rif beriladi. Bolalarda agressiya quidagicha namoyon bo'ladi:

-So'rov va ko'rsatmalarni bajarishdan bosh tortadi, qoidalarni biladi, lekin ularga rioya qilishni xoxlamaydi.

-Narsalarni buzishni yaxshi ko'radi, masalan, o'yinchoqlarni buzish va yo'q qilishdan zavqlanadi

-Doimiy ravishda tengdoshlari va kattalar bilan tortishuvda bo'ladi.

-U o'z atrofdagilarga salbiy reaksiyani: g'azab, g'azabni qastdan qo'zg'atishga urinish.

-U ko'pincha o'zini tutib turmaydi, o'zini boshqarishni bilamaydi va harakat ham qilmaydi.

Shuningdek J.K.Dandaryova va A.A.Rean maxsus ijtimoiy tadqiqot o'tkazilgan natijasiga ko'ra, o'z o'ziga bo'lgan bahoning tashqi ijtimoiy olam ziddiyatli holati, boshqacha qilib aytganda, o'smirdagi o'z o'ziga bergan bahoning tashqi ijtimoiy olamdan unga berilgan baho bilan nomutanosibliigi, o'smirda uning tengdoshlarga nisbatan agressivlikning yuqori darajasi bo'lishini sabab bo'ladi. Agressivlikning nisbiy shakli va negativlikda bu yaqqol ko'zga tashlanadi hamda ularda norozilik, jismoniy agressivlik va asabiylashish shakllari ham sezilarli

darajada bo'ladi. Aytish mumkinki, o'smirlarda o'z o'zini hurmat qilish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, undagi umumiy agressivlik va uning tarkibiy qismlari ham shunchalik yuqori bo'ladi. Bu munosabat agressivlikning instrumental shakliga ham, agressivlikning boshqa dushmanlik shakliga ham birdek xosdir. Maktab yoshidagi bolalarda agressiv xulq mavjudligini aniqlash uchun bir qancha psixologik o'yinlar mavjud.

1. Ko'pincha o'zini nazorat qilishni yo'qotadi.
2. Ko'pincha u kattalar bilan janjallashadi, bahslashadi.
3. Ko'pincha qoidalarni bajarishdan bosh tortadi.
4. Ko'pincha odamlarni atayin asabiga tegadi.
5. Ko'pincha xatolarida boshqalarni ayblaydi.
6. Ko'pincha g'azablanadi va biron nima qilishdan bosh tortadi.

7. Ko'pincha hasadgo'y, qasoskor hissiyatlar bilan o'zini qamrab oladi. Bolaning egilishlaridan biri bolaning qiziqchilik Maqsad: konstruktiv maqsadda foydalangan holda bolada agressiyaning namoyon bo'lishini aniqlashga yordam berish.

Boladan yalmog'iz stulga chiqib olgani va albatta uni u yerdan haydab chiqarish kerakligi haqida tasavvur qilishini so'rang. U qattiq qichqiriq va shovqinlardan juda qo'rqadi. Boladan yalmog'izni haydash so'raladi, buning uchun u baqirishi kerak va bo'sh plastik idishlar bilan stulni taqillatish kerak.

“Yumshoq qo'lchalar”

O'yinning maqsadi: qo'l mushaklaridagi taranglikni yo'qotish. Bolalarni agressiv holatdan chiqarishga yordam berish, idrokni rivojlantirish, kattalar va bolalar o'rtasida munosabatlarni mustahkamlash.

Kerakli jihozlar: 6-7 ta mayda buyumlar: shisha flakon, munchoq, cho'tkacha.

O'yinning borishi: Boshqaruvchi 6-7 ta mayda buyumlarni oladi: shisha flakon, munchoq, cho'tkacha, paxta va h.k. Ularning hammasini stolga qo'yadi. Bolalarga yengini tirsagigacha shimarish taklif etiladi; Boshqaruvchi ularning qo'lidan “jonivorlar” yurib, yumshoq qo'lchalari bilan tegib o'tishlarini aytadi. Ularning ko'zlari yumuq holda qaysi “jonivorlar” qo'llariga tegib o'tganini topishlari lozim. O'yin variantlari: “jonivorlar” bolalarning kaftga, yuzlariga, tizzalariga tegib o'tishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Вильданова Д.О проблемы психология агрессивного поведения. // Педагогик таълим ж.-2006.-№ 4.-Б.98-100.
2. Фурманов И.А. “Детская агрессивность: Психодиагностика и коррекция” Минск: Ильян В.П., 196—С.12

3. E.G'oziyev "Umumiy psixologiya" O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti -2010.
4. "Agressiv xatti-harakatlarning buzilishi" Sog'lom bolalar. Qabul qilingan sanasi:2019 yil 7-oktabr, Sog'lom bolalar: healthychildren.org.
5. Entsiklopediya. Umumiy va ijtimoiy psixologiya, M.I.Enikeev, PRIOR nashriyoti -Moskva, 2002.
6. Диагностика агрессивности у детей и подростков.Поддубная И.Н. – педагог-психолог Минск, 2021.

